



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM VAZIRLIGI  
SAMARQAND VETERINARIYA MEDITSINASI INSTITUTI**

**"QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI,  
SAQLASH VA QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASI"  
KAFEDRASI**

5410500-Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishslash texnologiyasi bakalavriat yo'naliishi

IV-kurs talabasi

Ablaqulova Ruqiya Xabibullaxanovnaning

***BITIRUV MALAKA VIY IshI***

**MAVZU: Gilos va o'rik mevalarini saqlash usullarini takomillashtirish**

**Ilmiy rahbar: assistent  
Maslaxatchi: dotsent**

**R.B.Tuyg'unov  
A.H.Yusupov**

**Samarqand – 2018 yil.**

Рахбар	Tuyg'unov R			001.002.046. BMI. 2018 у	Варак
Бажарди	Ablaqulova R				
Узг Варак	№ хужжат	Имзо	Сана		

## M U N D A R I J A

I.	K i r i sh	
II.	Umumiy qism	
III.	Asosiy qism	
IV.	Ekologiya, atrof muhit va xayot faoliyati havfsizligi.	
V.	Standartlashtirish	
VI.	Iqtisodiy qism	
VII.	Xulosa va takliflar	
VIII.	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati	
IX.	Internet ma'lumotlari	
X.	Taqdimot	

Рахбар	Tuyg'unov R		
Бажарди	Ablaqulova R		
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо

**001.002.046. BMI. 2018 у**

Варак

## KIRISH

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ko'rsatmalariga ko'ra xalqimiz farovonligining kelagini belgilab beruvchi 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid Davlat dasturi qabul qilindi.

Ushbu qabul qilingan dasturda Respublikamida qishloq xo'jaligini modernizasiya qilish va jadal rivojlantirishga, oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotni ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorining eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirishga, paxta va boshqoli don ekiladigan maydonlarni qisqartirib, ekin maydonlarini yanada maqbullashtirish, bo'shab qolgan yerkarda kartoshka, sabzavot, oziq-ovqat i moyli ekinlarni, shuningdek yangi intensiv bog' va uzumzorlarni joylashtirishga va qishloq xo'jaligi mahsulotlarni ishlab chiqarayotgan, tayyorlash, saqlash, sotish, kurilish ishlari va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqarildi.

O'z navbatida bu kabi mamlakatimiz ravnaqi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lган masalalarni hal etish o'ziga xos talablar va katta mehnatni talab etadi. Bunga hurmatli Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev takid-laganlaridek "Bu ishlarni bizga hyech kim chetdan kelib bajarib bermaydi".

Shunday ekan bu kabi ishlarni amalga oishirish maqsadida Hurmatli Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ko'rsatmalari bilan 2017 yilning 8-fevralida Vazirlar mahkamasining 2909 – Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga aytishicha Oliy ta'lim tizimida o'z yo'nalishlari bo'yicha dunyoning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarini joriy etish, ayniqsa, istiqbolli pedagog va ilmiy kadrlarni xorijning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalarida stajirovkadan o'tkazish va malakasini oshirish borasidagi ishlar olib borilishini,

Рахбар	Tuyg'unov R		
Бажарди	Ablaqulova R		
Узг Варак	№ хужжат	Имзо	Сана

**001.002.046. BMI. 2018 у**

Варак

Oliy ta'lif tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash maqsadi chora tadbirlar ishlab chiqildi.

Shu bilan bir payitda mazkur yilning 5-iyunida O'zbekiston Pre-zidentining "2017-2021 yillarda qayta tiklanuvchi energitekani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarida va ijtimoi sohada energiya samaradorligini oshirish chora – tadbirlari" dasturini qabul qilish bo'yicha № 22 782 sonli qarori imzolandi. Unga ko'ra 2017 – 2021 yillarda o'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, ishlab chiqarishning energiya sig'imini qisqartirish, milliy ilmiy–texnikaviy ishlanmalar va sinovdan o'tgan xalqaro energiya tejamkor ilg'or texnologiyalar tadqiqotlarini amaliyatga maqsadli joriy etish sohasida belgilangan ustivor yo'nalishlarni ruyobga chiqarish ko'zda tutilgan.

Meva-sabzavotlarning inson hayoti va xalq xo'jaligidagi ahamiyati juda katta. Mevachilik va sabzavotchilik tarmoqlari aholining meva-sabzavot mahsulotlariga bo'lgan talabini yil bo'yi qondirish bilan birga konserva va qandolatchilik sanoatini xom ashyo bilan ta'minlaydi. O'zbekistonda yildan-yilga meva yetishtirish ortib bormoqda.

Ma'lumki, inson organizmi uchun juda zarur bo'lgan qand, vitaminlar, biologik faol va mineral moddalarning miqdori meva-sabzavotlarning oziqliq qiymati, to'yimliligi va shifobaxshlik xususiyatlarini belgilab beradi.biroq, saqlash muddati chegaralanganligi sababli ularning saqlash muddatlarini uzaytirish ularning sifat va miqdorini yo'qotishga sabab bo'ladi va oqibatda ularni saqlash uchun mablag' va xarajat ortib ketadi.

Shuning uchun qayta ishslashning asosiy vazifasi qisqa muddat saqlanadigan xom-ashyoni uzoq muddat saqlanadigan mahsulotlarga o'tkazish hisoblanadi.

Turli-tuman konservalangan mahsulotlarni ishlab chiqarish o'z navbatida

Rahbar	Tuyg'unov R			001.002.046. BMI. 2018 y	Bapak
Bajarkadi	Ablaqulova R				
Uzg   Bapak	№ хужжат	Имзо	Сана		

yetishtirilgan meva-abzavot xom ashysini isrofini ancha kamaytiradi, yil davomida aholini meva-sabzavot mahsulotlariga bo'lgan talab va ehtiyojini ta'minlaydi.

Xom ashyni saqlash va qayta ishlash jarayonlari va realizasiya paytida mahsulot sifatini yaxshilash hamda kamaytirishga yo'l qo'ymaslik, qayta ishlash korxonalarini takomillashtirish ularni xom ashyo zahirasiga yaqinlashtirish, yangi zamонавиев соутгичлар тизимини qo'llash va rivojlantirish, qayta ishlangan mahsulotlarni tashish va saqlash uchun soha tarmoqlarini transport hamda konteynerlar yuklarni ko'taruvchi va tushiruvchi mexanizasiya voitalari bilan to'liq ta'minlash zarur.

Mevali ekinlar ichida gilos mevasi ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, bugungi kunda aholini xo'l va qayta ishlangan xolatida xom ashyo bilan ta'minlab kelmoqda. Gilos mevasi tarkibida inson organizmi uchun zarur har xil vitaminlar, oshlovchi moddalar, organi kislotalar va boshqa moddalar mavjud. Bundan tashqari tarkibida qand 12,2-14,5 foiz, glyukoza 13 foiz va shovul kislota 16 foizni tashkil etadi.

O'zbekistonda gilos mevasi juda erat, ya'ni may o'rtalarida pishib, hosilining yetilishi navning ertagi yoki kechkiligiga qarab iyun oxirigacha davom etadi. Bir tup gilosdan 130-300 kg gacha hosil olish mumkin. gilosning serhosil navlari asosan respublikamizning Andijon, Farg'ona, Samarqand va Toshkent viloyatlarida ko'proq yetishtirib kelinmoqda.

Gilos mevalari ma'lum muddatdagina pishib yetilganligi, shuningdek uning saqlanuvchanligi juda past bo'lganligi sababli, gilosdan turli xil konservalar, ya'ni kompot, sharbat, murabbo va boshqalar tayyorlanadi. Bundan tashqari gilos mevasini quritib saqlash ham mumkin. ushbu qayta ishlangan mahsulotlar bilan aholini gilos va gilos mahulotlariga bo'lgan talabi qondirib boriladi.

Рахбар	Tuyg'unov R		
Бажарди	Ablaqulova R		
Узг Варак	№ хужжат	Имзо	Сана

**001.002.046. BMI. 2018 у**

**Варак**

## **II. Umumiy qism**

### **2.1.Gilosning biologik xususiyatlari va yetishtirish texnologiyasi**

Gilos mo'tadil va issiq iqlim o'simligidir. Kavkaz va Qrimning tilog'och o'rmonlarida yovvoyi xolda o'sadi. Ukraina va Moldaviyada yovvoyilashgan yakka-yakka daraxtlarini uchratish mumkin. Madaniy gilos Qrimda, Dog'istonda, Ozarbayjon, Armaniston va Gruziyada, Ukrainianing janubida, Krasnodar o'lkasida, Molvadiyada, O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda keng tarqalgan. Keyingi yillarda Boltiq bo'yli respublikalarida ham muvaffaqiyatli ekib o'stirilmoqda.

Gilos bo'yli 10-15 m gacha yetadigan, shox-shabbasi siyrak, yo'g'on shoxlari kam bo'lgan baland daraxt. O'zbekistonda gilosning tanasi issiqdan qovjirab, po'stlog'i yorilib ketadi. Tinim holatidagi kurtaklari kam bo'ladi, shuning uchun ham asosiy qismlari qurib qolganda shox-shabbasi yaxshi tiklanmaydi.

Gilosning ayrim daraxtlari 80-100 yil yashaydi. Sovuqdan kam zararlanadi.

O'zbekiston sharoitida bur tup gilosdan 150-300 kg gacha hosil olinadi. Mevasi erta – may oxiri-iyun boshlarida pishadi. Qattiq etli navlari tashishga chidamli. Mevasi yumaloq, yuraksimon, sariq, qizil, to'q qizil rangda, eti sersuv, sirti bir tekis bo'ladi. Mevasi tarkibida 12,2 foiz shakar, 0,23 foiz, turli kislotalar va vitamin S hamda vitamin A bo'ladi.

Gilos yorug'likka va issiqlikka talabchan bo'ladi. Shuning uchun bizda uning gul kurtaklarini, yosh ko'chatlarini va novdalarini ko'pincha sovuq urib ketadi.

O'zbekistonda gilos asosan Andijon, Farg'ona, Samarqand, va Toshkent viloyatlarida ko'p, Buxoro, Xorazm viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida esa kam ekiladi.

Gilos mevasining konsistensiyasi bo'yicha sersuv, yoqimli, xo'raki va eti zich navlarga bo'linadi. O'zbekiston sharoitida u o'rik va shaftoliga qaraganda sovuqqa ancha chidamli, olchaga qaraganda chidamsizroq bo'ladi.

1968-1969 yillardagi uzoq davom etgan qattiq qishda ayrim daraxtlarni qisman sovuq urgan. O'sha yili yanvar-fevralda havo harorati -28 gradus S ga, tuproq harorati -34 gradusgacha tushgan. Hatto ana shunday qahraton qishdan

Рахоар	Гурун ишув		
Бажарди	Ablaqulova R		
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо Сана

**001.002.046. BMI. 2018 у**

**Варак**

keyin ham gilos navlarining gulkurtaklari to'la nobud bo'lмаган va bir qancha navlar gullab hosil bergen. Mayskaya navidan ancha ko'п – har tupidan 45 kg gacha hosil olingan.

O'zbekistonda gilosning mahalliy sharoitda eng yaxshi moslashgan navlarini ekish kerak. Gilos boshqa mevali daraxtlarga nisbatan kasalliklarga va zararkunandalarga ancha chidamli. Asosan unga qushlar (40-90 foiz) zarar yetkazadi.

Gilos tuproq-iqlim sharoitiga juda talabchan. Unumdor yerlarda yaxshi o'sadi va shag'al aralashgan ba'zi tuproqlarga ham moslashib ketadi. Sho'rangan, namligi ortiqcha yoki yetishmaydigan yerlarni yoqtirmaydi, kuchli va o'rtacha bo'z tuproqli yerlarda yaxshi o'sadi. Shag'al qatlami yuza joylashgan yerlarda sekin va kuchsiz o'sadi, kam hosil beradi, yelim oqish kasalligi bilan kuchli kasallanadi.

Gilosning hosildorligi shoda novdalar soni va ularning saqlanib qolishiga bog'liq. O'suv novdalarida 20-30 foiz, shoda novdalarda 70-80 foiz gulkurtak joylashadi. Gilosning yoshi ortishi bilan hosili shoda novdalarda to'planadi.

Gilos aprelning birinchi yarmida gullay boshlaydi, ertagi navlari may boshlarida, ayrim yillarda aprel oxirlarida pishadi. Vegetasiya davri 240-250 kun davom etadi.

Bog'larga bir xil gilos navlari o'tqazish tavsiya qilinmaydi, chunki yuqori hosil bermaydi. Shuning uchun ular orasiga changlovchi navlar ham o'tqazish zarur. Gilosdan muttasil mo'l hosil olish uchun bir vaqtida gullaydigan navlarni tanlab o'tqazish kerak. Qora gilos, Bahor, Fransis, Ramon Oliva, Drogana jyoltaya, Sariq gilos, Qora Napoleon, Pushti Napoleon kabi eng qimmatli changlovchi navlar hisoblanadi.

Gilos uzoq yashaydigan o'simlik, ayrim daraxtlari 80-100 yilgacha yashaydi.

**Yetishtirish.** Gilos meva bog'larining hosildorligi uzoq yashashi va samaradorligi ma'lum darajada unga ishlov berishning qanchalik to'g'ri tashkil yetilishiga bog'liqdir. Bog' tashkil etishda yo'l qo'yilgan xatolar o'simlikning kelgusi yillarda ko'zga tashlanib turadi. Bu kamchiliklarni tuzatish yildan-yilga

Рахбар	Tuyg'unov R		
Бажарди	Ablaqulova R		
Узг   Варак	№ хужжат	Имзо	Сана

**001.002.046. BMI. 2018 y**

Варак


qiyinlashadi yoki uni umuman tuzatib bo'lmaydi. Shuning uchun gilos bog'lari qat'iy ishlab chiqilgan rejaga binoan barpo etiladi va undagi vazifalar, tuproq iqlim sharoiti, o'simliklarning biologik xususiyatlari hamda tashkiliy xo'jalik va iqtisodiy masalalar hisobga olingan holda tuziladi. Shuningdek, ko'chatlarni o'tkazishdan oldin navlarni tanlash va joylashtirishga, tuproqni tayyorlashga va o'tkazish texnikasiga katta e'tibor beriladi.

Binobarin, ko'chatlarni o'tqazish uchun plantaj plug bilan haydalgan yerlarda chuqur kavlash oson bo'ladi. Ko'chat o'tqaziladigan yerning sharoitiga qarab, chuqurlar 70x70 sm yoki 80x80 sm sxemada kavlanadi. Chuqur kavlashda tuproqning 20-30 sm li ustki qatlam tuprog'i bir tomonga, undan pastki qismidagi tuproq ikkinchi tomonga tashlanadi. Ko'chat ekish vaqtida esa yerning ustki (unumdar) qatlam tuprog'i bilan ko'chatning ildiz qismi ko'miladi, ikkinchi tomondagi unumsiz tuproq butunlay ishlatilmaydi, uning o'rniga yerning ustki haydalma qatlamidagi tuproq bilan ko'mish tavsiya etiladi. Chuqurning ostki qavatidan chivdan tuproq esa tekislanib yuboriladi. Ko'chat ekiladigan chuqurlar KPYa-100 markali mashinada kavlanadi. Bu agregat «Belarus» yoki DT-24 traktoriga o'rnatib ishlatiladi. U diametri 30, 60, 80 va 100 sm, chuqurligi 100 sm gacha bo'lган chuqur kavlaydi. KPYa-100 agregatida bir soatda 70 - 240 tagacha chuqur kavlash mumkin .

Рахбар	Tuyg'unov R		
Бажарди	Ablaqulova R		
Узг Варак	№ хужжат	Имзо	Сана

**001.002.046. BMI. 2018 у**

**Варак**



**1-rasm. Ko'chat ekishda chuqurga tuproq tashlash. (Strelka bilan ko'rsatilgan)**

Ko'chat o'tqazilgandan keyin ortiqcha shox-shabbasi hamda shoxlarining uchki qismi o'tkir bog' qaychida qirqib tashlanadi. Bunda markaziy novda yon shoxlarga qaraganda birmuncha uzunroq qoldiriladi. Bulardan kelgusida yangi novda o'sib chiqadi va yangi yaruslar barpo qilinadi. Ko'chat o'tqazilgandan keyin o'z vaqtida butash kerak, aks holda daraxtlarga shakl berish qiyin bo'ladi.

Hosilga kirgan gilos bog'larini parvarishlash, bog'larda tuproqni ishlash rejimi deganda bog' qator oralaridan foydalanish, yerni ishlash, sug'orish, o'g'itlash va boshqalarga tushuniladi.

Gilos bog'i qator oralarini shudgor qilish butun o'suv davomida tuproqda nam to'plash va uni bir me'yorda saqlash imkonini beradi. Qora shudgor tuproqdagi shudgor qilish butun o'suv davomida tuproqqa nam to'plash va uni bir me'yoda saqlash imkonini beradi. Qora shudgor tuproqdagi havo va issiqlik rejimini yaxshilaydi, undagi biologik jarayonlarni normal kechirishga va issiqlik

Raxbar	Tuyg'unov R		
Бажарди	Ablaqulova R		
Узг   Варак	№ хужжат	Имзо	Сана

**001.002.046. BMI. 2018 у**

**Варак**

rejimini oziq moddalar, ayniqsa nitratlarning to'planishiga yordam beradi, yerni begona o'tlardan tozalaydi.

Sug'orish o'tkazishdan oldin egatlar olinadi, sug'oriladi keyin yer yetilishi bilan egatlar yumshatib qo'yiladi. Bu bilan tuproqdagi kapilyarlar buziladi va yer betidagi nam bug'lanish ancha kamayadi. Tuproqning namligi va sug'orish mevalarni miqdoriga va sifatiga ta'sir etadi. Kam me'yorda, shuningdek kechiktirib sug'orish, ayniqsa mo'l hosil beradigan yillari hosilning to'kilib ketishiga sabab bo'ladi.

**M.Mirzaev** nomidagi ITI bog'larida vegetasiya davridagi sug'orishlar soniga qarab hosilning qanchasi to'kilganini qayd etilgan: 3-4 marta sug'orilganda to'kilgan mevalar miqdori 39,4 foiz; 1-2 martada-48,4 foiz, sug'orilmaganda esa 51,4 foiz bo'lgan.

Ko'proq sug'orilganda gilos mevalari yirikroq bo'ladi. Sug'orishlar meva rangini yaxshilaydi. Kam sug'orish gilos tarkibidagi qand va kislotalar miqdorini qamaytirib, sifatini pasayishiga sabab bo'ladi. O'zbekistonda bog'larni sug'orishda quydagi usullari: pol olib sug'orish, jildiratib sug'orish, egatlarda sug'orish, halqasimon ariqchalar olib sug'orish qo'llanadi. Agar bularga yaxob suvi berilsa, o'suv davridagi sug'orishlar soni kamay-tiriladi. Hosil beruvchi bog'lar o'suv davridagi to'rt marta, janubda olti marta, shag'altoshli yerlarda esa o'n ikki, o'n uch martagacha sug'orilishi kerak.

Sizot suvlari yaqin bo'lgan o'tloq tuproqda sug'orish miqdori kamaytiriladi, ba'zan esa bir-ikki sug'orishning o'zi kifoya qiladi. Hosilga kirgan bog'lar uchun sug'orish me'yori 800-8000 m<sup>3</sup>/ga chegarasida o'zgarib turadi.

Shag'al toshli, sizot suvlari yaqin joylashgan yerlarda bu me'yor gektariga 300-500 m<sup>3</sup>/gacha kamaytiriladi. Yaxob berish miqdori gektariga 1200-1500-2000m<sup>3</sup>.

Gilosdan mo'l hosil olish uchun bog'larda yuqori agrotexnika kompleksini qo'llash yo'li bilan bajarilishi mumkin, bunda o'g'itlash muhim ahamiyaga egadir. O'g'itlardan oqilona foydalanilsa, ular o'simliklarning yer ustki qisimlari va ildiz tizimining rivojlanishiga yaxshi ta'sir etadi.

Рахбар	Tuyg'unov R		
Бажарди	Ablaqulova R		
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо

**001.002.046. BMI. 2018 y**

Варак

O'g'itlangan yerdag'i gilos daraxtlarining novdasi yaxshiroq o'sadi, hosili esa 20-25 foizgacha oshadi, ayrim hollarda ildizlar regerinasiyasi ikki-uch marta yaxshilanadi.

Daraxtlarni o'g'itlash gilos mevalarining sifatiga ham ta'sir etadi, ularning vazni o'rtacha 10-15 foizgacha ortadi, mevalarni rangi yaxshilanadi. Hamma sharoit teng bo'lganda, gilos daraxtlari o'g'itlarni jumladan azot va foforli o'g'it turlarini ko'proq talab qiladi. Meva daraxtlarining yozgi navlari faqat asosiy o'g'itlarga talabchan bo'ladi. Daraxtlar qancha qalin va qancha hosil ko'p bo'lsa, maydon birligi hisobiga shuncha ko'p o'g'it beriladi. Mineral o'g'itlar bilan birga organik o'g'itlar ham ishlatiladi, chunki ular tuproqning fizik xususiyatlarini yaxshilaydi. Hosil beruvchi bog'larni o'g'itlashda har gettaridan 15 tonna hosil olish mo'ljallanganda 120 kilogramm azot, 60 kilogramm fosfor, 15-30 gramm kaliy va uch yilda bir marta 20-40 tonna go'ng solish tavsiya etiladi. Go'ng ishlatilmaganda mineral o'g'itlar dozasi 30-40 foizga oshiriladi. Shag'al toshli yerlarda o'g'it me'yorini 50 foiz ko'paytirilib, azotni esa bahorda iyunda va iyulda beriladi .

Butash meva o'simliklari hayotida ularning o'sishini va meva berishini kuchaytirish uchun, zararni va noqulay hosildorlarning oldini olishi mum-kin. Meva o'simliklarida asosan, bir yillik novdalar kesiladi. Novdalar-ning har yilgi uzunligi daraxt holatining ko'rsatkichi hisoblanadi. Daraxtning asosiy hosil shohlari xar yili qancha uzaysa, daraxt shuncha uzoq yashaydi va mo'l hosil beradi. Bu eski va meva berib bo'lgan novdvlar o'rnini bosadigan yosh navdalargina hosil bergen navdalar shakillanishi bilan bog'liqdir. Ayniqsa o'sishni beshinchи va oltinchi davrlaridagi, ya'ni o'sish pasayib va hosil berishi kamaygan daraxtlarni butash zarur.

Meva daraxtlarini butash ikkiga: shox va butalarni qisqartirish va shox-shabbani siyraklashtirishga bo'linadi. Ko'p yillik shoxlarni kesish daraxtni yoshartirish deb ataladi. Meva daraxtlari kuz-qishda, qish-bahorda va navda hamda shoxlarning uchki qisimlariga oziq moddalar yetib bormasdan butaladi. Butash dastlabki ikki muddatda daraxtning tinim davrida, barg chiqarmagan davrida

Рахбар	Tuyg'unov R		
Бажарди	Ablaqulova R		
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо

**001.002.046. BMI. 2018 y**

Варак

o'tkaziladi. Hozirda respublikamizda va chet ellarda daraxtni tinim davrida butash qabul qilingan. Bundan tashqari daraxtning bargsiz holatda butashni o'tkazish oson bo'ladi, shu bilan birga butovchilar ham bu davrda boshqa ishlar bilan unchalik band bo'lmaydi.

## **2.2.O'rik o'simligining botanik tasnifi va biologik xususiyatlari**

O'rikning O'zbekistonda bir qancha turkumlari uchraydi. Ularning asosiyalarini quyida keltirib o'tamiz.

**Oddiy o'rik** (A. Vulgaris) ning madaniy hamda yovvoyi shakllari bo'lib, yovvoyilari O'rta Osiyo tog'larida uchraydi. Yetishtiriladigan mintaqaga qarab bu o'rik bir necha guruhga bo'linadi. Masalan, Farg'onada quritiladigan Boboiv, Isfarak, Qandak, Mirsanjali, Subhoniy, Hurmoiy va boshqa navlar ekiladi. Bular kasalliklarga chidamsiz navlardir.

Zarafshon vodiysida Arzami, Ahrori, Gulyungi, Javpazak, Mahtobi, Ruxi juvonon kabi kasalliklarga birmuncha chidamli navlar tarqalgan.

Xorazmda Nuqlu, Payvandi, Kuzgi, Xorazm kabi xo'raki navlar ekiladi. Bu navlar kasalliklarga chidamsiz, sovuqqa chndamli .

**Sibir o'rigi** (A. Sibirica Lam) buta yoki daraxt shaklida o'sadi, juda erta gullaydi. Mevasini iste'mol qilib bo'lmaydi. Danagi etidan yaxshi ajraladi va mag'zi achchiq bo'ladi. Bu tur o'z joyida sovuqqa o'ta chidamli, undan past bo'yli payvandtag sifatida foydalanish mumkin.

**Manchjuriya o'rigi** (A. manshurica) ning bo'yisi 20 m gacha yetadi. Bu o'rik turining daraxti sovuqqa chidamli, madaniy o'rik uchun yaxshi payvandtag hisoblanadi .

**David** (A. Davidianacor) Sibir o'rigiga yaqin turadi. Sovuqqa chidamli.


**Xitoy o'rigi mume** ( A. Mume sieb) Xitoy va Yaponiyada o'stililadi. Issiqsevar, o'ta namlikka va ildiz bakterial kasalliklariga chidamli. Bu o'rikdan manzarali daraxtlar va danakli meva daraxtlari uchun payvandtag sifatida foydalaniladi.

Рахбар	Tuyg'unov R		
Бажарди	Ablaqulova R		
Узг   Варак	№ хужжат	Имзо	Сана

**001.002.046. BMI. 2018 у**

**Варак**

Mahalliy o'rik daraxtlari kuchli (15 m gacha) o'sadi, serhosil, 100 yilgacha yashaydi. Mevasi nавига qarab, may oxirlaridan sentyabrgacha pishadi, o'rtacha vazni 25-30 g, turli rangda va shaklda bo'ladi.



**2-rasm. Oddiy o'rikning guli, bargi, mevalari va  
shoxchasining umumiy ko'rinishi**

Рахбар	Tuyg'unov R		
Бажарди	Ablaqulova R		
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо

**001.002.046. BMI. 2018 у**

**Варак**

O'zbekistonda ekiladigan o'rik navlari uch guruhga: xo'raki o'rik navlari - Javpazak, Ruxi juvonon, Ahrori, Arzami, Oq o'rik; Quritiladigan o'rik navlari: Xurmoiy, Isfarak, Subhoniy, Gulyungi, Bodomi hamda konservabop o'rik navlari - Korolevskiy, Vengerskiy, Krasnoshchyokiy va boshqalarga bo'linadi. Arzami, Ruxi juvonon va Iskandariy navlarini uchinchi guruhga ham kiritish mumkin.

O'zbekistonda asosan ertapishar va o'rtapishar o'rik navlari ko'p tarqalgan. O'rik asosan, O'zbekistonda va Tojikistonda ekiladi. Tabiiy sharoitining qulayligi, tog'lar iqlimining kontinentalligi, tez o'sishi, yer tanlamasligi, erta hosilga kirishi va mo'l hosil berishi o'rik daraxtining O'rta Osiyoda keng tarqalishiga sabab bo'lган. O'rta Osiyo sharoitida o'rikning eng ertagi navlari may oyining o'rtalarida va oxirida pishadi. Bu vaqtda hali boshqa mevalar kam pishgan bo'ladi. O'rik ekilgandan keyin 3-4-yili hosilga kiradi.

O'zbekistonda o'rik asosan, quruq meva yetishtirish va mevasini yangiligidan iste'mol qilish uchun ekiladi. O'rikni oftobda quritish yilning eng issiq davri - iyun-avgust oylariga to'g'ri keladi. Bu vaqtda havo ochiq, issiq bo'lib, havoning namligi nisbatan past bo'ladi, bu qulaylik o'rikni yerda, ya'ni ochiq maydonlarda quritishga imkon beradi.

O'rta Osiyoda ekiladigan o'rik navlari asosan O'rta Osiyo guruhlariga mansub bo'lib, ular turli muddatda yetilishi va o'ziga xos boshqa xususiyatlari bilan farq qiladi.

Yevropa guruhiga kiradigan o'rik navlarining mevasi yirik bo'lib, eti uncha tig'iz emas, mazasi hushbo'y, unsimon g'uborli, shirasi kam, nordonroq. Bu navlar xo'raki-konservabop bo'lib, kam quritiladi.

Eron-Kavkaz guruhiga mansub navlar, shuningdek qora yoki binafsha rang o'riklar juda kam uchraydi.

O'rta Osiyo guruhiga mansub bo'lган navlar sharqiy hamda g'arbiy Tyanshan yovvoyi turlaridan kelib chiqqan bo'lib, birinchi navbatda Farg'ona vodiysida va Zarafshon havzasasi atrofida ekiladi. Ularning navi va shakli juda xilma-xil bo'lib, 300 dan ortadi. Daraxtlari kuchli va tez o'sishi, tez hosilga kirishi, uzok yashashi, issiqliqa va qurg'oqchilikka chidamliligi bilan Yevropa guruhiga kiradigan

Рахбар	Tuyg'unov R		
Бажарди	Ablaqulova R		
Узг   Варак	№ хужжат	Имзо	Сана

navlardan ajralib turadi, shuningdek, gul-kurtaklarining bahorgi sovuqqa (ularning o'sishini birmuncha sekinlashtirib turadigan) chidamliligi, kelgusida juda ko'p hosil berishi mumkin bo'lgan shoxlarning faqat uchlarida emas, balki o'rtalarida joylashgan novdalarda ham hosil kurtak paydo qila olishi, shamolga o'ta chidamliligi va bir necha xil navlarda mevaning daraxtda turshak bo'lib qolishi, yangi pishgan mevada qand moddasining ko'p (yevropa guruhiga kiradigan navlardagiga nisbatan 1,5 baravar ortiq) bo'lishi, biroq kislotasi kamligi bilan farq qiladi. Shu bilan birga, bu guruhga mansub bo'lган ko'pgina navlar shu daraxt gulidan changlantirilganda hosil bermasligi va klyasterosporioz xamda kulrang chirish kasalligiga uncha chidamli emasligi bilan ajralib turadi.

O'rta Osiyo guruhiga mansub o'rik navlari mevasidan asosan quruq meva yetishtiriladi, juda kam qismidan konserva tayyorlanadi va yangiligida iste'mol qilinadi.

Bu guruhga kiradigan navlar bir necha kichik guruhga bo'linadi. Ulardan Farg'ona, Zarafshon va Xorazm guruhiga mansub bo'lganlari mevasining morfologik belgilari, mexanik hamda kimyoviy tarkibi va biologik xususiyatlari (asosan sovuqqa chidamliligi) bilan farq qiladi.

O'rikning biologiyasi ustida to'xtalar ekanmiz, shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, u mo'l hosil berishi uchun o'ziga xos qulay iqlim sharoitini talab etadi. Daraxtlariiing o'sishi va rivojlanishi hamda ertagi o'rik mevalari pishishi uchun hammasi bo'lib  $2500^{\circ}$  li samarali faol harorat talab qilinadi. Daraxtlar O'rta Osyoning janubiy rayonlaridagi yuqori harorat, ayrim kunlari  $42-45^{\circ}$  va hatto  $48^{\circ}$  dan yuqori bo'lganda ham yaxshi o'sadi .

O'rik daraxtlari qattiq sovuqqa chidamliligi bilan farq qiladi. Lekin eng muhim kamchiliklaridan biri meva kurtaklari juda erta uyg'onib, gullay boshlashidir. Ana shu davrda havo harorati juda pasayib ketsa, ularni sovuq urib ketadi. Agar qish iliq kelib, vaqt-vaqt bilan sovuq bo'lib turganida gul kurtaklarning rivojlanishi tezlashadi va ularning sovuqqa chidamliligi pasayadi, qish sovuq kelib, kun isimaganda gul kurtaklari rivojlanmay, ularning sovuqqa chidamliligi ortadi. Fevral oyiga o'rtalarida sovuq  $18-20^{\circ}$  bo'lganda gul kartaklari

Рахбар	Tuyg'unov R		
Бажарди	Ablaqulova R		
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо

butunlay nobud bo'ladi, mart oyining boshlarida sovuq 8-10° bo'lganda ham kurtaklar shikastlanishi mumkin. O'rikning meva kurtaklari tojbarg chiqarish davrida sovuq minus 5-6° bo'lganida, yangi ochilgan gullari va endigina tugilgan tuguni minus 1-2° gacha pasayganda nobud bo'ladi. O'rta Osiyoning tekislik rayonlarida qishda harorat tez-tez o'zgarib turadi, buning natijasida o'rik daraxtlari tinim davrini tezda tugatib, o'sishga tayyorlana boshlaydi. Bu hodisa ayrim yillarda yanvar oyida yoki fevral oyidayoq yuz beradi. Shuning uchun ham tekislikda o'rikning meva kurtaklari kuchli, tog' oldi va tog'da kamroq shikastlanadi, chunki bunday yerlarda meva kurtaklari birmuncha kechroq uyg'onadi va gullashi bir oz kechikadi, bu hodisa ko'pincha bahorgi sovuq tugaganida boshlanadi. Shimolrokda joylashgan rayonlarda - - Amudaryoning quyi qismida o'rik har yili juda kech gullagani uchun deyarli yiliga mo'l hosil olinadi.

O'rik asosan Farg'ona vodiysida ko'p ekiladi. Bu yerda dengiz sathidan 300 m dan 1610 metrgacha bo'lgan joylarda o'sadi. Biroq tog' oldi mintaqa (dengiz sathidan 600 -1000 metr balandlikda) .o'rik uchun eng qulay mintaqa hisoblanadi. Vodiyning bnrmuncha tekislik mintaqasida o'rik erta gullaganligi uchun tog' oldi hamda tog'lik qismiga qaraganda baxorgi sovuqdan tez-tez zararlanadi.

Asosiy tovarbop o'rik ko'chatlari vodiyning birmuncha quruq g'arbiy qismida joylashgan: yuqoriga ko'tarilgan sari iqlim sharoiti yomonlasha boshlagach (asosan yozda yog'ingarchilik ko'p bo'lganidan) ularning salmog'i shu sababli kamayadi. Bu yerlarga boshqa xildagi daraxt ko'chatlari, asosan, urug'li meva ko'chatlari joylashtiriladi. Masalan, vodiyning g'arbiy rayonlarida o'rtacha yillik yog'ingarchilik miqdori 96-108 mm ni, sharqda Andijonda ikki yarim marta ortik, ya'ni 236 mm ni tashkil etadi. Vodiyning shimoli-sharqiy tomonidagi Chotqol va ayniqsa Farg'ona tog' tizmalarida yog'ingarchilik ko'p (600-900 mm) bo'ladi.

Farg'ona vodiysida o'rik kuchsiz sho'rangan, og'ir hamda loy tuproqli yerlardan shag'al toshli yerlargacha o'sadi. Shag'al toshli qatlami 1,5-2,0 m va undan chuqurda joylashgan unumdor soz tuproqlarda o'rik mo'l hosil beradi.

O'rik, ayniqsa, adirlarda yaxshi o'sadi. Bu shleyflar va tog' oldi tizmalari dengiz sathidan 700 dan 1200-1600 metrgacha balandlikda joylashgan, ular katta

Raxbar	Tuyg'unov R		
Бажарди	Ablaqulova R		
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо

**001.002.046. BMI. 2018 y**

Варак

maydonni egallaydi va relyefi yumshoqligi bilan farq qiladi; bu yerlar uncha baland bo'limgan tepaliklar, uncha chuqur bo'limgan pastliklar bilan almashinadi; vodiyning tog' oldi mintaqasi uning hali yaxshi o'zlashtirilmag'an qismi hisoblanadi. Bu mintaqa tekislik mintaqaga nisbatan mevazor bog'lar hamda o'rikzorlar tashkil etish uchun juda qulay hisoblanadi. Bu mintaqa tekislik mintaqaga nisbatan mevazor bog'lar hamda o'rikzorlar tashkil etish uchun juda qulay hisoblanadi. Chunki kuz, qish va erta bahorgi sovuq ta'sirida meva kurtaklari, gullari va daraxtining yog'ochlik qismi kamdan-kam holda muzlaydi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, o'rikning Farg'ona guruhiga mansub navlaridan quruq mahsulot olinadi, undan juda ko'p miqdor tarkibida 80-86 % qand moddasi bo'lgan turshak tushadi. Xo'raki navi juda kam (3-5%) miqdorda bo'lib, asosan, ertapishar va juda kech yetiladigan, avgust hamda sentyabr oylarida pishadigan (kechpishar navlar), shuningdek, konserva tayyorlanadigan navlar ko'p tarqalgan.

Ko'pgina mahalliy Farg'ona navlari - populyasiyalar yoki shu navga yaqin tiplar bo'lib, ular juda ko'p o'rik xillarini o'z ichiga oladi, ular asosan mevalarining pishish vaqtini, yirik-maydaligi, kimyoviy va mexanik tarkibi, shakli, rangi, mazasi va shu kabi boshqa xo'jalik xususiyatlari hamda morfologik belgilari bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan, Isfarak nav o'z ichiga quyidagi: Oq isfarak, Qizil isfarak, Katta isfarak, Uzuntumshuq, Bo'lak isfarak, Bodom isfarak, Chiroyli isfarak, Suli tumshuq, Isfarak, Mayda isfarak va boshqa xillarni oladi. Xurmoyi naviga xos xillarning turi juda ko'p bo'lib, ikki oy (iyun-iyul oylari) mobaynida pishadi. Ular quyidagilardan iborat: Xurmoyi № 2, Oq xurmoyi, Qizil xurmoyi, Qandak, Xurmoyi, Kadu xurmoyi, Katta xurmoyi va boshqalar. Oq uchma, Qizil uchma - Uchma naviga, Oq boboiy, Qizil boboiy - Boboiy naviga xos turlardir.

Ma'lum navga xos o'rik xillarining o'ziga xos xususiyatlari yaqqol ko'zga tashlanib turadi va ularni nav deb atash ham mumkin. Biroq, ularning qimmati har xil bo'lib, ko'plari juda kam uchraydi. Ayrim navga xos o'rik turlarining tog' tizmalarida o'sishi va ekologik xususiyatlari ularning o'ziga xos belgilari hisoblanadi.

Рахбар	Tuyg'unov R		
Бажарди	Ablaqulova R		
Узг   Варак	№ хужжат	Имзо	Сана

**001.002.046. BMI. 2018 у**

**Варак**

Zarafshon rayoni turli-tuman o'rik navlari yetishtiriladigan yirik rayon hisoblanadi. Bu yerda mevasi o'z-o'zidan so'liydigan hamda tupida turib quriydigan, shuningdek, konserva tayyorlashga yaroqli va tuksiz navlar guruhi keng tarqalgan.

Zarafshon kichik guruhiga kiradigan meva navlarining ayrim kamchiliklari bor, bular shundan iboratki, ularning tarkibidagi qand miqdori Farg'ona kichik guruhiga kiradigan o'riklarnikiga nisbatan kam, lekin kislotasi birmuncha ko'proch bo'ladi. Zarafshon kichik guruhiga kiradigan o'rik navlarining kuritilgan qand moddasi bilan kislotalik nisbati me'yorida bo'lib, mazasining juda yaxshiligi jihatidan ajralib turadi. Bu navlar quruqligida qanday qadrlansa, yangiligida ham shunday qadrlanadi. Bu ularning xo'jalik nuqtai nazaridan qimmatini oshiradi. Zarafshon kichik guruhiga kiradigan ko'pgina navlarni sinab ko'rish natijalari ularni Farg'ona vodiysida hamda O'rta Osiyoning boshqa rayonlarida ekib ko'paytirish uchun tavsiya etishga imkon berdi.

Samarqand va unga yaqin rayonlarda Ko'rsodiq navining ko'pgina eng qimmatli xillari, shuningdek, Ruxi juvonon, Arzami,. Ahrori, Mahtobi kabi navlar keng tarqalgan.

Xorazm kichik guruhiga kiradigan o'rik navlari Amudaryoning quyi qismida, Qoraqalpog'istonda uchraydi. Ular qattiq quruq iqlim va sho'rangan tuproq sharoitida shakllanib o'rikning O'rta Osiyo ekotipini hosil qildi. Bu kichik guruhga kiradigan navlar sho'rangan tuproq sharoitiga hamdasov uqqa ancha chidamli, biroq nam iqlimga moslashmagan, danagidan yetishtirilgan nihollar uncha qimmatli emas, Farg'ona va Zarafshon navlariga nisbatan tarkibida qand moddasi kamroq, kislotaliligi yuqori va quritilgan mahsuloti kam chiqadi. Bu navlar Oq nuqulpolvon, Qizilpolvon va boshqalardan iborat. Asosan turshak kilinadi, lekin kam turshak tushadi.

O'rik daraxti texnologiyasiga oid masalalar ustida to'xtalar ekanmiz, shuni aytish kerakki, u har yili hosil beradigan daraxtlardan hisoblanadi va uning muttasil hosildor bo'lishini ta'minlash juda oson. Biroq o'rik daraxtlari o'sishi

Рахбар	Tuyg'unov R		
Бажарди	Ablaqulova R		
Узг Варак	№ хужжат	Имзо	Сана

**001.002.046. BMI. 2018 у**

Варак

uchun iqlim sharoiti qulay bo'lishi bilan birga parvarish qilish chora-tadbirlari ham shunga muvofiq ravishda olib borilishi kerak.

O'rik tez o'sishi va erta hosilga kirishi bilan boshqa mevalardan farq qiladi. O'rta Osiyoda ekiladigan navlar ko'pincha 3-4-yili hosilga kiradi. Ular 100-150 yil yashaydi. Shu yoshida ham ko'pgina daraxtlari hosil beraveradi. Yosh daraxtlarining bir yillik novdasi 56-170 santimetrga yetadi. Daraxtining kuchli o'sishi unda ko'proq hosil to'planishiga imkon beradi .

Рахбар	Tuyg'unov R		
Бажарди	Ablaqulova R		
Узг   Варак	№ хужжат	Имзо	Сана

**001.002.046. BMI. 2018 у**

**Варак**

### **III.TEXNOLOGIK QISM.**

#### **3.1.O'zbekistonda rayonlashtirilgan gilos navlari tavsifi**

**Bahor** – ertapishar universal nav. O'zbekistonda gilos mavsumini boshlab beradigan bu nav Fransis va Savri surxoni navlarini chatishtirib chiqarilgan. Sovuqqa o'rtacha chidamli, respublikamizning quruq iqlimiga moslashgan. Daraxtlari baquvvat, shox-shabbasi yumaloq, yoyilib o'sadi, to'rtinchi yoshdan boshlab hosilga kiradi, hosildorligi o'rtacha – o'n yoshida 50 kg gacha hosil olinadi.

Mevasi 5-10 maylarda pishadi, yirik (8 g), yumaloq, rangi to'q qizil, to'la pishib yetilganda qora bo'ladi. Eti to'q qizil, zich, lekin mayin, yoqimli, ta'mi juda yaxshi. Danagi mayda, etidan oson ajraladi. Tashishga va saqlashga chidamli, mevasi daraxtda so'liguncha to'kilmay turadi. Yangiligida. yeylimadi va konserva qilinadi, kompoti 5 ball baholanadi. Bu nav respublikamizning barcha rayonlarida ekiladi.

**Volovye serdse** – o'rtapishar, yuqori sifatlari xo'raki nav. Shox-shabbasi keng tuxumsimon, daraxtlari baquvvat,sov uqqa o'rtacha chidamli. Beshinchchi yoshdan hosilga kiradi. O'n yoshdan boshlab har tupidan 60-65 kg dan hosil olinadi. Mevasi yirik 6 g, yuraksimon shaklda, to'q qizil. Eti och sariq, zich, shirin, yaxshi ta'mli. Tashishga chidamli. Mevasi asosan yangiligida iste'mol qilinadi .

**Qora goshe** – O'zbekiston sharoiti uchun istiqbolli, yirik mevali konservabop nav. Shox-shabbasi teskari piramidasimon, daraxtlari baquvvat. To'rt yoshidan hosilga kiradi, hosildorligi yaxshi, 10 yillik daraxtidan 75 kg gacha hosil olinadi. O'rtacha kechpishar, mevasi 10-13 iyunda yetiladi.

Mevasining o'rtacha vazni 4 g, yumaloq, keng yuraksimon shaklda, to'ch qizil, to'la pishib yetilganda qoramtil bo'ladi. Eti to'q qizil, zich, o'rtacha sersuv, sershira, yoqimli mazali, bir oz taxir. Shirasi quyuq, to'q rangda, danagi o'rtacha, uzunchoq, etidan oson ajraladi. Chiroyli to'q qizil sharbatli kompot va murabbo tayyorlanadi. 4,5 ball baholanadi. Uni qoqi qilish ham mumkin.

**Melitopol ertagisi** – Melitopol tajriba stansiyasida chiqarilgan bo'lib, mevasi yirik ertapishar, xo'raki-konservabop nav. Daraxtlari baquvvat,sov uqqa

Raxbar	Tuyg'unov R		
Бажарди	Ablaqulova R		
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо

**001.002.046. BMI. 2018 y**

**Варак**

ancha chidamli, o'sish sharoitiga talabchan emas, shox-shabbasi o'rtacha qalii, yumaloq shaklda. Beshinchi yoshidan hosilga kiradi, o'n yoshida har tupidan 60-65 kg dan hosil olinadi. Mevasi yirik (7,6 g), yassi yumaloq, to'q qizil, bilinarbilinmas g'adir-budir, chiroyli tovlanadi. Eti to'q qizil, zichligi o'rtacha, sersuv, ta'mi yaxshi, shirin. Tashishga va saqlashga chidamli. Mevasi yangiligida yeyiladi va konserva qilinadi. Bu gilosdan tayyorlangan kompotlar 4 yoki 5 ball baholanadi.

**Qora gilos** – xalq seleksiyasi yo'li bilan chiqarilgan maxalliy nav, o'rtacha ertapishar, Samarqand viloyatida keng tarqalgan. Daraxtlar baquvvat bo'lib o'sadi, uzoq yashaydi, sovuqqa ancha chidamli, O'zbekiston sharoitiga moslashgan. Uchinchi yoshdan hosilga kirib, har yili hosil beradi. Mevasi 5-15 mayda pishadi.

Mevasi to'mtoq, yuraksimon, do'ngli, deyarli qora rangda, o'rtacha vazni 4 g. Eti to'q qizil, mayin, sersuv, sershira, ta'mi juda yaxshi. Tashishga chidamli va yaxshi saqlanadi. Danagi mayda, etidan yaxshi ajraladi. Mevasi yangiligida iste'mol qilinadi, kompot, murabbo tayyorlanadi, bu mahsulotlar 4,5 ball bilan baholanadi. Qora gilos navi O'zbekistonning barcha viloyatlari uchun rayonlashtirilgan .


**Sariq gilos (Drogana jeltaya)** – universal foydalanish uchun yaroqli, mevasining shakli tuxumsimon, qurroqchilikka ancha chidamli, to'rtinchi yoshdan boshlab har yili hosil beradi. 10 yoshga yetganda hosildorligi 100 kg ga yetadi. Bu nav qisman o'zini-o'zi changlaydi, asosan esa Fransis, Pushti Napoleon navlaridan yaxshi changlanadi. Kechroq – 20-25 iyunda pishadi. Mevasi yumaloq, sariq rangda, yirik, o'rtacha vazni 5 g. Eti och sariq, zich, sersuv (2-rasm).

Mevasidan kompot va ayniqsa murabbo pishiriladi. Bu nav butun respublika bo'yicha rayonlashtirilgan.

Рахбар	Tuyg'unov R		
Бажарди	Ablaqulova R		
Узг   Варак	№ хужжат	Имзо	Сана

**001.002.046. BMI. 2018 у**

**Варак**



3-rasm.Gilosning Qora gilos (1) va Sariq gilos (2) navlari

Рахбар	Tuyg'unov R		
Бажарди	Ablaqulova R		
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо

001.002.046. BMI. 2018 у

Варак

**Revershon** – kechpishar, universal, foydalanish uchun yaroqli nav. Daraxtlari baquvvat, keng tuxumsimon shox-shabbali, qurg'oqchilikka ancha chidamli, sovuqqa o'rtacha chidamli, mahalliy iqlimga yaxshi moslashgan. Beshinchi yoshdan hosilga kiradi, 10 yoshida hosildorligi har tupidan 60-65 kg ga yetadi. Mevasi 25-30 mayda pishadi, yirik, o'rtacha vazni 7,5 g, keng yuraksimon, rangi to'q qizil, juda chiroyli. Eti to'q qizil, zich, karsillaydigan, shirin, ta'mi juda yaxshi. Mevasi yangiligida yeyiladi va kompot qilinadi.

Revershon navi O'zbekistonning barcha viloyatlari uchun rayonlashtirilgan. O'zbekiston bo'yicha rayonlashtirilgan gilos navlari – Bahor, Qora gilos, Drogana jyoltaya, Revershondan tashqari, Melitopol o'rtagisi, Qora Napoleon, Volovye serdse, Qora Goshe, Qora ertagi Nayta navlari ham istiqbollidir.

**Qora napoleon** – o'rtacha, erta pishar, universal nav. Shox-shabbasi qalin, keng piramidasimon, daraxtlari baquvvat, kurg'oqchilikka nisbatan chidamli, sovuqqa bardoshli va mahalliy iqlimga moslashgan.

Beshinchi yoshidan hosilga kiradi. 10 yoshdan boshlab har tupidan 60-70 kg gacha hosil olinadi. Mevasi 25 mayda pishadi, yirik (7 g), yuraksimon shaklda, yonlari bir oz qisilgan, to'la pishib yetilganda qora rangli bo'lib, yaltiraydi. Eti to'q qizil, zichligi o'rtacha, sersuv, sershira, ta'mi yaxshi. Mevasi yangiligida yeyiladi va kompot tayyorlanadi.

**Qora ertagi nayta** – xo'raki nav. Shox-shabbasi yumaloq, serhosil va sovuqqa chidamli bo'ladi. 15 yoshida har tupidan 100-110 kg dan hosil olinadi. Bu o'rtacha ertapishar nav. Mevasining o'rtacha vazni 4,2 g. yumaloq-yuraksimon shaklda, to'q qizil, deyarli qora desa ham bo'ladi. Eti sershira, to'q qizil rangda, mayin, shirin, yaxshi ta'mli. Danagi mayda, etidan yaxshi ajraladi. 25 maylarda pishadi, yangiligida yeyiladi va konserva qilinadi.

MDH seleksiyasining yangi navlaridan, ertapishar – Qaldirg'och, o'rtapishar Qora likyorli, o'rtapishar Bagration, kechpishar – Pushti Simferopol navlari ham bor.

Рахбар	Tuyg'unov R		
Бажарди	Ablaqulova R		
Узг   Варак	№ хужжат	Имзо	Сана

**001.002.046. BMI. 2018 у**

**Варак**

### **3.2.O'zbekistonda rayonlashtirilgan o'rik navlari tavsifi**

Yuqorida ham ta'kidlaganimizdek, o'rik respublikamizda eng ko'p yetishtiriladigan mevalardan biri hisoblanadi. Uning juda ko'p seleksiya, xorijiy va mahalliy navlari mavjud. Quyida ularning eng asosiyalarini keltirib o'tamiz.

